

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 4-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-5-5

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Rakhimov Oktyabr, Tulayeva Soxiba

KASBIY TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHDA XAVFLARNI TASNIFINING TUTGAN O'RNI 4-7

Safoyev Nuriddin

KVANT NUQTALI TEXNOLOGIYADA QUUVAT TAHLILI HUJUMLARI VA KRIPTOGRAFIK SXEMALARNI LOYIHALASH 8-11

TARIX FANLARI

Begaliyeva Aysha

ISLOHOTLARDAN KEYINGI DAVRDA ROSSIYA IMPERIYASI TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Murtazayev Isabek

ZARAFSHON MINTAQASIDA BUXORO VILOYATINING HUDUDIY-IQTISODIY SALOHİYATI VA TARMOQLARARO IXTISOSLASHUVI 15-18

FALSAFA FANLARI

Maxmudov Izzatillo

KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT VA IJTIMOİY HIMOYA ISLOHOTLARI O'ZARO BOG'LIQLIGI 19-22

FILOLOGIYA FANLARI

Saydullayeva Aziza

"YALMOG'IZ KAMPIR" ERTAGI: KOMPOZITSIYA, KONFLIKT VA YOVUZ QAHRAMON TAHLILI 23-25

Xamrakulova Farangiz

TEMPORAL METAFORALARINING AQLIY VA MADANIY IDROKKA TA'SIRI 26-28

YURIDIK FANLAR

Normurodova Behro'za

RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO HAMKORLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI 29-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaqiqatbekov Zafarbek

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SALOMATLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA UNIVERSITET RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 37-42

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT ISHLARINI XALQARO ILMIY PLATFORMALARDA INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR 43-48

Tagayev Odil

VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN HAQIQAT (VR/AR) TEXNOLOGIYALARI DIDAKTIK IMKONIYATLARI 49-51

Xakimova Xosiyat

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING NUTQ KO'NIKMALARINI BAHOLASHNING DIAGNOSTIK MODELI 52-54

FALSAFA FANLARI

KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT VA IJTIMOY HIMOYA ISLOHOTLARI O'ZARO BOG'LIQLIGI

Maxmudov Izzatillo Ne'matilloevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi siyosat hamda ijtimoiy himoya islohotlari o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Unda korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga, davlat boshqaruvi samaradorligiga, ijtimoiy adolat va inson qadri ta'minotiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri ochib berilgan. Maqolada O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy strategiyalar, huquqiy va institutsional mexanizmlar tahlil qilinib, ularning ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, antikorrupsion siyosat, inson qadri, huquqiy madaniyat, shaffoflik, fuqarolik jamiyati.

THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN ANTI-CORRUPTION POLICY AND SOCIAL PROTECTION REFORMS

Izzatillo Ne'matilloevich Makhmudov

Independent Researcher, Bukhara State University

Annotation. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the intrinsic interrelationship between anti-corruption policy and reforms in the sphere of social protection. It thoroughly examines the negative impact of corruption on social development, the effectiveness of public administration, the provision of social justice, and the protection of human dignity. The article also analyzes the reforms, national strategies, and legal and institutional mechanisms being implemented in Uzbekistan in the field of combating corruption, and scientifically substantiates their significance in strengthening the social protection system.

Key words: corruption, social protection, social justice, anti-corruption policy, human dignity, legal culture, transparency, civil society.

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida global muammo sifatida qayd etilgan, davlatlarning barcha sohalarining tanazzuliga sabab bo'layotgan illat bu korrupsiyadir. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan bartaraf etilishi shart bo'lgan eng muhim, dolzarb muammo korrupsiyaga qarshi kurash masalasidir. Korrupsiya har bir davlatning davlat ichki siyosatidagi muammo bo'lib qolmasdan, barcha davlatlar iqtisodiyotiga tahdid soluvchi hodisa ekanligi xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinib, uni oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqilib, yangilab borilmoqda. So'nggi yillarda xalqaro hamkorlik deyilganda - faqatgina korrupsiya harakatini sodir etgan shaxslarni ushlab, ushbu shaxsga nisbatan tergov harakatlarini amalga oshirish tushunilmasdan, balki davlatlar o'rtasida korrupsiyaviy jarayonlarni oldini olish bo'yicha tajribalar almashish, birgalikda davlat dasturlari, chora-tadbir mexanizmlarini ishlab chiqish, ijtimoiy jarayonlarda qo'llaniladigan normalar tizimini yaratish, xalqaro tashkilotlar tomonidan tadbirlar tashkil etish va ularda ishtirok etish, ilmiy faoliyatda sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: "Korrupsiyaga qarshi kurashishda

aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak", deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, jonajon O'zbekistonimizda hozirgi paytda olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan halollik, to'g'rilik bilan yondashish orqali yuzaga kelayotganligini barchamiz teran anglamog'imiz lozim.

Qonunchiligimizga ko'ra, davlat boshqaruv idoralari hamda tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish, korrupsiyaning har qanday ko'rinishlarining ular tomonidan sodir etilishining oldini olish, kompleks kurash tizimini yaratish bo'yicha dasturlar, strategik islohotlar amalga oshirilishi belgilab olindi. Ushbu vazifa har bir tashkilot rahbaridan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha aniq chorlarni ko'rishi lozim ekanligini anglatadi. Ushbu dastur asosida har bir davlat idoralarida kompleks nazorat tizimi "Antikorrupsiya" kompleks nazorat tizimi joriy etildi.

Davlat xizmatchilarida korrupsiyaga qarshi madaniyatning yuksalishi nafaqat davlat xizmatchilari, balki fuqarolarning ham hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, fuqarolarning davlat xizmatchilariga ishonchi mustahkamlanishi, ularda qonunlarga hurmat tuyg'usining rivojlanishiga turtki beradi. Bu esa, davlat organlari faoliyatida xolislikni ta'minlab, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida eng keskin ijtimoiy muammolardan biri bo'lib, korrupsiya axloqiy va huquqiy baho predmetiga aylanmoqda: tegishli huquq, siyosatshunoslik, sotsiologiya bilimlariga asoslangan shaxsiy tajriba va axborot fonini qaytadan mushohada qilish sodir bo'ladi. Shu munosabat bilan, ushbu tizim bo'yicha sohada mavjud bo'lgan ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Korrupsiyaga qarshi ta'lim dasturlari va chora-tadbirlar tarix va iqtisodiyot, jamiyat, davlat va huquqni o'rganish bo'yicha asosiy ta'lim dasturlari modullarining tarkibiga muvaffaqiyatli integratsiya etilishi lozim. Bundan tashqari, ta'lim oluvchilarni korrupsiyaga qarshi ma'rifat bilan o'qitish oid amaliy vazifalar ilmiy seksiyalar va to'garaklarga zimmasiga ham yuklanadi.

Korrupsiyasiz jamiyat qurish, unga qarshi kurash tizimi joriy etish bo'yicha ta'limning asosiy maqsadi- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash tizimi bo'yicha dunyoqarashni, shaxsning mustahkam axloqiy asoslarini, fuqarolik pozitsiyasini va barqaror korrupsiyaga qarshi malakalarni shakllantirish. Antikorrupsion ta'limning asosiy tamoyillari [1]:

1. Vorisiylik.
2. Tizimli yondashuv. Korrupsiyaga qarshi ta'lim vertikal va gorizontal jihatdan integratsiyalashgan kompleks ta'lim sifatida ko'rilishi lozim.
3. Majmuaviylik, antikorrupsion dunyoqarashni shakllantirishga, shuningdek antikorrupsion xulq-atvorni va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilganlik.
4. Yosh xususiyatlarini inobatga olish.
5. Ta'lim jarayoniga integratsiyalashuv.
6. Ta'limda kompetentlilik bilan aloqa
7. Hamkorlik. Antikorrupsion ta'limning vazifalarini mazkur jarayonda manfaatdor bo'lgan barcha tomonlar: yoshlar tashkilotlari, qon-qarindoshlar, ijtimoiy-javobgar

tadbirkorlar, hokimiyat tuzilmalari va huquq-tartibot organlari, diniy konfessiyalar ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

8. Preventivlik. Korrupsiyaga qarshi ta'lim korrupsion xulq-atvor va tafakkurning har qanday ko'rinishini oldini olishga qaratilmog'i lozim.

Muhim axloqiy-ma'naviy omil sifatida korrupsiyaga qarshi toqatsiz o'laroq tarbiyalash natijasida, adolatning buzilishga nisbatan antikorrupsion ong paydo bo'ladi. Katta ehtimol bu argument alohida yosh avlod tomonidan adekvat ravishda qabul qilinmasligi mumkin. Xususan, qonun chiqaruvchining joriy siyosatiga salbiy munosabati ta'lim oluvchining fikricha uning huquqi va manfaatlarini yetarli darajada inobatga oladi, korrupsiyaga qonunning rasmiy me'yorini buzish sifatida befarq munosabatning sababi bo'lishi mumkin

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash tizimini shakllantirish, uning barcha ko'rinishlariga barham berish mexanizmining asosiy vazifalari korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, uni harakatlantirgan kuch, u keltirib chiqaradigan oqibatni tahlil qilish, uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishdir. Ushbu faoliyatni amalga oshirish korrupsiyaning kelib chiqishidan tortib, to uning yechimigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi [2].

Korrupsiyaga qarshi kurashga bunday yondashuv O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligining xalqaro e'tirofida o'z ifodasini topmoqda.

Dunyo miqyosida korrupsiyasiz davlatlar reytingida mamlakatimiz ham o'zining munosib o'rniga ega bo'lin, so'nggi yillardagi mamlakatimizda amalga oshirilgan faoliyat dasturlari bo'yicha davlatimiz xalqaro miqyosdagi mukofotga sazovor deb topildi. Taqdirlash marosimi Toshkent shahrida bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha" xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimida so'zlagan nutqida quyidagi so'zlarni ta'kidlagan edi: "Kundan kunga shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan dunyoda eng dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etilgan, korrupsiyaga qarshi kurash sohasida ushbu mukofotning ta'sis etilgani, uni topshirish uchun ko'tarinki ruda marosimlarning barcha qit'alar bo'ylab tashkil etilib kelinayotgani ham yuksak e'tirofga sazovordir [3].

Ushbu nufuzli mukofot yordami bilan korrupsiyaga qarshi kurashga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan dunyodagi eng faol shaxslar e'tirof etilishi, ular tajribasini o'rganishga bo'lgan harakat bundan roppa-rosa 20 yil oldin ishlab chiqilgan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash" Konvensiyasining talablarini hayotga to'liq joriy etishga xizmat qiladi.

Albatta, ushbu nufuzli tadbirning o'tkazish joyi sifatida O'zbekiston tanlanishi bejiz emas. Inchinun, Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. So'nggi yetti yilda mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi samarali kurashish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi.

Birinchi navbatda ushbu siyosat asosida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, ushbu tizim bo'yicha mas'ul agentlik tashkil etildi, barcha davlat boshqaruv idoralari va organlarida korrupsiyaga qarshi kurash va uni oldini olish bo'yicha muvofiqlikni nazorat qilish va samaradorlik reytingi tizimli yo'lga qo'yildi. Davlatimiz rahbarining ushbu nufuzli tadbirda ilgari surgan amaliy takliflari o'z vaqtida va dolzarb, deb hisoblayman. Ayniqsa, 2030-yilgacha korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyani amalga oshirish, Korrupsiya muammolari bo'yicha mintaqaviy tadqiqot markazini tashkil etish, korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash tizimi bo'yicha jurnalistlar, ushbu sohada faoliyat

yuritayotgan shaxslar imkoniyatlardan unumli foydalanish va ularning ta'sir doirasini yanada oshirish maqsadida "Global media forum"ini tashkil etish va namunaviy tarzda o'tkazish takliflari muhim chaqiriqlardan bo'ldi [4].

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida nafaqat mamlakat hukumati tomonidan bugun amalga oshirilayotgan tadbirlar va qarorlarga, balki yoshlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini alohida qayd etdi. Shubhasiz, ushbu tashabbuslarning amalga oshirilishi milliy, mintaqaviy va global miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashga muhim omil bo'ladi.

Chindan ham, oxirgi 5 yillikda davlatimiz hududida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash tizimiga e'tibor darajasi ortdi. Mamlakatimiz aholisining huquqiy ongi va madaniyati, huquqiy savodxonligini yuksaltirish, jamiyatimizda ushbu illatga qarshi murosasiz kurashni shakllantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish borasida ulkan ishlar qilindi [5].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Dohaga tashrifi doirasida O'zbekiston Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi hamda Qatar Ma'muriy nazorat va shaffoflik departamenti o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolangan edi. Ushbu memorandumning imzolanishi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimli hamkorlikni yanada rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatimizda Qatar Amiri tashabbusi bilan ta'sis etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashdagi ulkan yutuqlari uchun" global mukofotini topshirish marosimining o'tkazilgani esa Prezidentimiz boshchiligidagi so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar, barcha sohalarda olib borilayotgan tizimli islohotlarning yorqin ifodasi, desak ayni haqiqat.

Mulohazalarimni Toshkentda o'rnatilgan xalqaro hamjamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarini ifodalovchi, kafti ochiq qo'l ko'rinishida ishlangan monument tavsifi bilan yakunlamoqchiman. Bu barchamiz mamlakat hududida adolat va haqqoniylik yo'lida qat'iyat bilan, ishchi, mansabdor shaxs, oddiy aholi, jamiyatning qaysi sohasida, qaysi lavozimda faoliyat yuritishidan qat'iy nazar pok qalb va vijdonimiz amri, halollik bilan bir birimizning qo'lini mahkam tutayotganimiz ramzidir. Zotan, O'zbekiston bunday keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirayotganlar bilan doim hamjihatdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi//<https://president.uz/oz>
2. Ne'matilloevich, M. I. (2025). IJTIMOY ADOLAT PRINSIPLARINING QAROR TOPISHI-SHAXS SIYOSIY IJTIMOYILASHUVINING MUHIM SHARTI. YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI, 1(2), 426-428.
3. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.
4. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. Asian Journal of Basic Science & Research, 5(1), 103-108.
5. Maxmudov, I. (2025). IJTIMOY ADOLAT: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TALQINI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(11), 159-163.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

ISBN-978-9910-8337-5-5

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.